



Mavzu: Fe'l so`z turkumi

Reja:

1. Fe'ning ma'no turlari
2. Fe'llarning tuslanishi.
3. Fe'llarda zamon ko`rsatkichi

Muallif: Muqaddamxon Ehsonova

Harakat va harakat bilan bog`liq holatni bildirib, nima qilmoq? nima bo`lmoq? so`roqlarini oluvchi so`z turkumi fe'l deyiladi. Masalan: yugurmoq, sakramoq, suyunmoq, uxlamoq, qurimoq, ko`paymoq, tinchimoq va boshqalar.

Fe'l quyidagi grammatik ko`rsatkichlarga ega:

1. Ma'no turlari bilan ifodaladi.
2. Zamon kategoriyasi mavjud.
3. Nisbat va mayl kategoriyasini ko`rsatadi.
4. Bo`lishli va bo`lishsiz shakllariga ega.
5. O`timli va o`timsiz bo`ladi.
6. To`liqsiz fe'l shakllari ham mavjud.

7. Vazifa shakllariga ega.

8. Yetakchi va ko`makchi shakllarida bo`ladi.

9. Yasaladi.

10. Sodda, murakkab tuziladi.

11. Sintaktik vazifa bajaradi.

12. Mustaqil so`z turkumlarining eng asosiysi sanaladi.

Fe'lining ma'no turlari.

Fe'l dastlab ikkiga bo`linadi: harakat fe'llari va holat fe'llari.

Shaxs, jonivor, narsa va boshqa tushunchalarning harakati asosida yuzaga kelgan fe'llar harakat fe'llari deyiladi: kuldi, tishladi, ushladi, salomlashdi, siljidi.

Narsaning bir holatdan ikkinchi holatga o`tishidan yoki insonning his- tuyg`ulari asosida yuzaga kelgan fe'llar holat fe'llari deyiladi.

Masalan: suyundi, terladi, pishdi, o`yladi, yoqdi, uyg`ondi, his qildi.

Bundan tashqari, ba'zi manbalarda fe'lining ma'no turlari bir necha guruhlarga bo`lingan:

1. Yumush fe'llari: pishirdi, supurdi, artadi.
2. Yurish fe'llari: ketdi, keldi, tashrif buyurdi.
3. Ko`rish fe'llari: qaradi, boqdi, nigoh tashladi.

4. Jismoniy harakat fe'llari: siladi, qisdi, burdi.
5. Jismoniy holat fe'llari: isitmaladi, uxladi.
6. Tabiiy holat fe'llari: esdi, portlari, eridi.
7. Ruhiiy holat fe'llari: suyundi, siqildi, quvondi.
8. Tafakkur fe'llari: o`yladi, fahmladi, angladi.
9. Ishora fe'llari: lab burdi, ko`z qisdi.
10. Sezgi fe'llari: sezdi, his qildi, tuydi.
11. Eshitish fe'llari: tingladi, quloq soldi.
12. Nutqiy fe'llar: gapirdi, so`zladadi, so`radi.

Fe'llarda zamon ko`rsatkichi.

Harakat- holatning bajarilish payti fe'l zamonlari deyiladi.

Zamonlar dastlab 3ga bo`linadi:

1. O`tgan zamon: ishladi.
2. Hozirgi zamon: ishlayapti.
3. Kelasi zamon: ishlaydi.

Fe'l zamonlari hozirgi zamonga nisbatan, ya'ni nutq so`zlanib turgan paytga nisbatan olinadi.

Demak, nutq so`zlanib turgan paytda bajarilgan harakat-holat hozirgi zamon;

nutq so`zlanib turgan paytdan oldin bajarilgan harakat-holat o'tgan zamon;

nutq so`zlanib turgan paytdan keyin bajariladigan harakat-holat kelasi zamon deyiladi.

O`tgan zamon fe`llarini o`z ichida quyidagi ma'no guruhlarini hosil qiladi:

1. Uzoq o`tgan zamon: harakat-holatni ancha ilgari bajarilganligini bildiradi, -gan(edi) qo`shimchasi orqali hosil qilinadi: U Navoiy kitobini o`qigan(edi).
2. Yaqin o`tgan zamon harakat-holatni yaqinda bajarilganligini va so`zlovchining o`zi ko`rib guvoh bo`lganligin bildiradi: U Navoiyning kitobini o`qidi.

3. O`tgan zamon maqsad fe`li: o`z oldiga maqsad qilib qo`yilgan, lekin bajarilmay qolgan harakat-holatni bildiradi,-moqchi qo`shimchasi orqali yasaladi: U “Jaloliddin” filmi ko`rmoqchi edi.

4. O`tgan zamon hikoya fe`li: harakat-holatni birovdan eshitib bilganini yoki oldindan kutilganligini bildiradi,-(i)bdi orqali yuzaga keladi: “Benom” Farg`onaga kelibdi.

Hozirgi zamon quyidagi qo`shimchalar orqali hosil qilinadi:

-yap(ti): Men mavzuni tushunyapman.

-moqda: Yurtimizda bahor hukm surmoqda.

-(a)yotir: Alpomish kelayotir.

Bu qo`shimchalardan –yap...uslubiy betaraf bo`lib, qolganlari asosan badiiy nutqda ishlatiladi.

Kelasi zamon quyidagi qo`shimchalar orqali hosil qilinadi:

-a... boraman.

--y... o`qiyman.

-Badiiy nutqdagi –ajak, -gusi, -g`usi qo`shimchalari ham Kelsi zamon ma'nosini ifodalab keladi: Hali baxtli-baxtli kunlar kelajak.

Fe'llarning tuslanishi

Fe'llarning shaxs-son qo`shimchalarini olishi tuslanish deyiladi.

Demak, shaxs-son qo`shimchalari tuslovchi qo`shimchalar deyiladi. Shaxs-son qo`shimchalari harakat-holat bajaruvchisini shaxsini va sonini ko`rsatuvchi qo`shimchalardir.

Shaxs-son qo`shimchalari 3 xil shaklga ega.

1-shakl

Bu shakl fe`lning shart mayli qo`shimchasi –sa va yaqin o`tgan zamon qo`shimchasi –di affikslaridan keyin keladi:

| | birlik | ko`plik |
|-----------|---------|-------------|
| I shaxs | keldim | keldik |
| II shaxs | kelding | keldingiz |
| III shaxs | keldi | keldi(-lar) |

2-shakl qolgan barcha zamon
qo`shimchalaridan keyin keladi:

birlik

ko`plik

I shaxs

kelganman

kelganmiz

II shaxs

kelgansan

kelgansiz

III shaxs

kelgan

kelgan (-lar)

3- shakl. Bu shakldan buyruq- istak maylini hosil qilishda ham foydalaniladi.

birlik

ko`plik

I shaxs

boray

boraylik

II shaxs

bor(gin)

boring(iz)

III shaxs

borsin

borishsin

Xulosa

Demak, fe'l soʻz turkumi eng katta mavzulardan biri boʻlib, gap hosil qilishda va gapdagi asosiy hukmni berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Fe'lining grammatik koʻrsatkichlari bir nechta boʻlib, ularsiz lingvistika fanini tasavvur qilib boʻlmaydi.

E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT

